

## OLIY HARBIY BILIM YURTIDA BO'LAJAK OFITSERLARNI KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH

***Turanazarov Umid Raxmonqulovich***

*Toshkent harbiy okrugi boshqaruв apparatidan polkovnik*

Kasbiy faoliyatning umumiyligi maqsadi va strategiyasini belgilab beruvchi tamoyillar yig‘indisi metodologik yondashuv deya ta’rif beriladi. Metodologik yondashuvga tadqiqot ishining tamoyili, metodologiyasi, o‘rganish obyekti ko‘rib chiqilayotgan nuqtai nazar ya’ni obyektni aniqlash usuli, tushuncha yoki tadqiqot ishi umumiyligi strategiyasini boshqaruvchi tamoyil deya qaraladi. Bir vaziyatda yondashuv to‘liq strategik tamoyil yoki ular yig‘indisi bilan yakunlansa, boshqasida esa yondashuv tushunchasi tadqiqot ishida muayyan dunyoqarashni ifoda etuvchi pozitsiyani o‘tkazishga qiyoslanadi, uchinchi bir holatda muayyan yondashuvga murojaat qilish deganda tegishli tamoyillarni tatbiq etishning shakli va sharti bo‘lib xizmat qiluvchi bir qancha protseduralar va yo‘l-yo‘riqlarni bir vaqtda qo‘llash nazarda tutiladi [1,2].

Yuqorida aytilgan fikrlarga tayangan holda talim jarayonida kasbiy kompetentligni rivojlantirish masalasiga murakkab va ko‘p aspektli fenomen sifatida qaraymiz. Mazkur fenomen uning nazariy ishlab chiqilishini tashkiliy jihatdan majmuaviy bo‘lishini ta’minlay oladigan yondashuvlarni qo‘llashni va asosiy tavsiflarni tadqiq qilishni nazarda tutadi. Strategik miqyosda ijtimoiy-shaxsiy va tizimli miqyosda esa kompetentlik va integrativ yondashuvlar tanlab olinadi [3].

Tizimli yondashuvning nazariy asoslari bir qator izlanuvchilar tomonidan tadqiqq etilgan. Ular mavzu bexato qo‘yilishini ta’minalash hamda ilmiy izlanishning umumiyligi yo‘nalishini aniqlashda mazkur yondashuvga yetakchi o‘rin berishadi. Shu bilan birga, taqdiq etilayotgan obyekt komponentlarning muayyan yo‘sinda tashkil topgan yaxlit bir aloqasi sifatida ko‘riladi. Ushbu aloqa ma’lum darajada barqarorlik kasb etadi. “Tizim” tushunchasi borasida turlicha talqinlar mavjud. Ensiklopediyalarda “Sistema” (yunonchada *system* – qismlardan tarkib topgan bir butun, birikma ma’nosini anglatadi), ya’ni tizim tushunchasi - o‘zaro munosabat va aloqada bo‘lgan, ma’lum bir yaxlitlik, birlilik hosil qiluvchi bir talay elementlar sifatida talqin etiladi [4]. Pedagogik tizim deb o‘zaro bog‘langan mazmuniy shakl, metod, vosita va jarayonlar majmuasini tushunamiz. Bularning barchasi bo‘lajak ofitserlarda harbiy tayyorgarlikni amalga oshirish jarayonida kasbiy kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan, maqsadli pedagogik ta’sir muhitini yaratishda foydalaniladi.

Tadqiqot ishimizda tizimli yondashuv kasbiy kompetensiyalar, shaxsiy va kasbiy muhim sifatlar rivojlanishi jarayonining tuzilmasini anglatadi. Kasbiy kompetensiyasi hamda

shaxsning o‘ziga xos xislatlari kasbiy ta’lim, ya’ni, harbiy tayyorgarlik jarayonida rivojlanadi. Ta’lim oluvchilar bosqichdan bosqichga ildamlagani sari harbiy kasbiy kompetentligini yuzaga chiqaruvchi psixologik-pedagogik ta’sir etuvchi metod, vosita va shakllar majmua holiga kelishi kuchayadi, harbiy-kasbiy kompetentligini rivojlanishi sifati esa yorqin ko‘zga tashlanib, chuqurlashib boraveradi.

Tizimli yondashuv kasbiy kompetentlikni rivojlantirish jarayonini majmuaviy tarzda o‘rganilishini ta’minlaydi hamda ushbu o‘rganish jarayoniga yaxlit namoyon bo‘luvchi o‘zaro aloqadorlik, mansublik, bir biriga tobeklik va o‘zaro ta’sirlashuvchi bloklar yig‘indisidan iborat pedagogik tizim sifatida qarash imkonini beradi. Kasbiy kompetentligini yuzaga chiqarish jarayoni ancha yuqori darajali, ya’ni bo‘lajak ofitserni yuqori kasbiylilikka ega bo‘lishi uchun o‘qitish tizimining tizim osti hisoblanadi. Harbiy kasbiy kompetentligini taktika darajasida rivojlantirish kompetentlikka mo‘ljallangan yoki kompetentlik yondashuviga asoslangan tahsil deb atash mumkin. Kompetentlik - shaxsning muayyan ta’lim yunalishi yoki mutaxassisligi buyicha olgan bilim, malaka va kunikmalari xamda shakl-langan shaxsiy xislatlarini mexnat faoliya-tida muvaffakiyatli kullay olish kobiliyatidir [5].

Kompetentlik yondashuvi nuqtai nazaridan olib qaralsa, maxsus harbiy ta’lim berishdan ko‘zlangan maqsad kompetentli, mas’uliyat his etuvchi, o‘z kasbining ustasi sanalgan bo‘lajak ofitserni tayyorlashdan iborat. Kompetentli yondashuv bo‘lajak ofitserning kasbiy faoliyatini aniq va o‘z muddatida bajarishga qodirlik va shaylikni kafolatlovchi harbiy-kasbiy kasbiy kompetentligining mohiyati, mazmuni va komponentligini mukammal o‘zlashtirishga imkon beradi.

Integrativ yondashuvga qarab mo‘jal olarkanmiz, bo‘lajak ofitserlarning harbiy kasbiy kompetentligini rivojlantirish muammosini umumkasbiy va maxsus fanlarning nazariy aspektlari mazmunini ularning harbiy kasbiy tayyorgarlik jarayonidagi amaliy-kasbiy mazmun bilan integratsiyalash nuqtai nazaridan ko‘rib chiqamiz. Integrativ yondashuv metodologiyasi kasbiy kompetentligini rivojlantirish jarayonini metodologiya mazmunining alohida komponentlariga bunga qadar hos bo‘lmagan, integratsiyaga kirishuvchi yangi xossa, sifat va belgilarni o‘zida jamlagan yaxlitlikni tushunishga imkon beradi.

Shunday qilib, tadqiqot ishimiz metodologiyasi tahlili quyidagilarni qayd etish imkonini beradi:

- kasbiy tayyorgarlik jarayonida harbiy-kasbiy kompetentlikni rivojlantirish muammosini ikki darajada: strategik va taktik miqyosda tadqiq qilish;

- strategik darajada shaxsga oid va tizimli yondashuvlar natija beradi, taktik darajada esa kompetentlik hamda integrativ yondashuvlarning muhim ahamiyatga ega bo‘ladi;

- yondashuvlar o‘zaro bog‘liqlikka ega bo‘lib, ular o‘rtasida uzviylik va o‘zaro aloqadorlik mavjud;

- keltirib o‘tilgan yondashuvlarning har biri tadqiqotning ilmiy apparatini, shuningdek, kasbiy faoliyatga tayyorgarlik jarayonida harbiy-kasbiy kompetentligini rivojlantirishni belgilab beradi;

- tadqiqot ishimiz kontekstida mazkur yondashuvlar yig‘indisini qo‘llash kasbiy kompetentligini rivojlantirish modelining ko‘rinishini belgilab beradi.

Kasbiy kompetentlikni rivojlantirishda o‘qituvchi faoliyati va bo‘lajak ofitserlar kasbiy faoliyat olib borishining tashkiliy shakllari va metodlarini belgilab beruvchi asosiy qoidalar umumiy pedagogik jarayonning tamoyillari sanaladi. Mazkur vazifa o‘z navbatida O‘zbekiston Respublikasi Oliy harbiy bilim yurtida ta’lim jarayonini maxsus tamoyillar asosida tashkil etishni taqozo qiladi.

Ilm-fanda tamoyillar – har qanday nazariyaning asosiy, boshlang‘ich yo‘l-yo‘riqlari, yetakchi g‘oyalari, xulq-atvor va hatti-harakatlarning asosiy qoidalarini belgilaydi. Oliy harbiy ta’lim berish jarayonning tamoyillari pedagogik kasbiy faoliyatni tashkil etishga asosiy talablarni aks ettiradi, harbiy-kasbiy kompetentlikni rivojlantirish jarayoniga ijodiy tomondan yondashishga yordam beradi.

Metodik modelni ishlab chiqishda oliy harbiy ta’lim pedagogikasining quyidagi tamoyillaridan asos sifatida foydalandik: politexnik tamoyil; kasbiy mobillik tamoyili; kasbiy ta’limda modulli o‘qitish tamoyili; muntazamlik va izchillik tamoyili; shart-sharoit yaratish tamoyili; pedagogik jarayonni avtomatlashtirish tamoyili; ta’limni ishlab chiqarish harbiy amaliyoti bilan bog‘lash tamoyili, nazariya va amaliyotning birligi; oliy harbiy ta’lim jarayonida kasbiy faoliyatni modellashtirish tamoyili; iqtisodiy maqsadga muvofiqlik tamoyili.

Bundan tashqari, kompetensiyalar va kompetentlik bevosita didaktika qoidalariga va inversion bog‘liqlikka ega degan mazmundagi nazariy asoslariiga tayanib, oliy harbiy ta’lim pedagogikasi tamoyillarini ko‘targan muammomizni hal etish uchun nihoyatda ahamiyatli o‘ziga xos tamoyillar bilan to‘ldirish zarur degan fikrga keldik: nazariy tahsilning amaliyot bilan ularning “nazariya - amaliyot - nazariya” ko‘rinishidagi bevosita va inversion bog‘liqligidagi uzlusiz aloqasi tamoyili; differensiyalangan ijtimoiy shart qilib qo‘ylgan maqsadni qo‘yish va baholash tamoyili.

Nazariy ta’limning amaliyot bilan ularning “nazariya - amaliyot - nazariya” ko‘rinishidagi bevosita va inversion bog‘liqligidagi uzlusiz aloqasi [6] nazariyaning harbiy amaliy faoliyatni boyitishi va rivojlantirishiga imkon bersa, o‘zlashtirilgan amaliyot shaxsning yangi integrativ sifatini - kasbiy kompetentligini rivojlantirib nazariy bilimlarning chuqurlashuvini ta’minlaydi.

Bo'lajak ofitserlarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish modelida ushbu tamoyilni bajarish harbiy tayyorgarlik jarayonida nazariyani o'zlashtirish darajasi va amaliyotning tegishli ehtiyojlari o'rtasidagi shakllanishning har bir bosqichida sun'iy muovazanatsizlikning yaratilishi bilan mumkin bo'ladi, nazariy kasbiy ko'nikmalarining to'liqligi ( $K_{T1}$ ,  $K_{T2}$ ,  $K_{T3}$  ( $K_{P1}...$ ) - kasbiy kompetentligi rivojlanishning har bir bosqichida mutaxassislikka oid nazariy bilimlarning to'liqligi koeffitsiyentlari) harbiy-kasbiy tayyorgarlik imkoniyatlarini ochib beradi hamda bo'lajak ofitserning harbiy amaliyotni yaxshi o'zlashtirishiga imkon yaratadi, ammo tezligi, aniqligi, to'liqligi va izchilligi bo'yicha berilgan normativ darajasiga ( $M_{a1}$ ,  $M_{a2}$ ,  $M_{a3}$  ( $M_{P1}.$ ) - kompetentlikni rivojlanishning har bir bosqichida amaliy kasbiy malaka, ko'nikmalari, harbiy faoliyatning umumlashtirilgan usullarining berilgan meyorlari darajalari) yetishga zamin hozirlamaydi, bunda yo'l qo'yilgan xatolar sabab u soxta meyor darajasini egallashi mumkin ( $M_{n1}$ ,  $M_{n2}$ ,  $M_{n3}$ )( $M_{P1}.$ ). Yuqoridagi holat bo'lajak ofitserning salohiyatini jadallashtiradi va uni xatolarni bartaraf etishga hamda tegishli bosqichida qo'yilgan maqsadga erishishga undaydi. Bo'lajak ofitser nazariyani teran idrok etishi uchun hamda berilgan meyorlar darajasiga yetishiga to'sqinlik qilayotgan muammolarni topishi uchun bilimlarni chuqurroq o'zlashtirish, nazariyani ( $K_{t1}, K_{t2}, K_{t3}, K_{g1}$  - kasbiy kompetentligini rivojlanishning har bir bosqichida mutaxassislikka oid nazariy bilimlarning teranligi koeffitsiyentlari) egallahsga majbur, biroq amaliyotdan keyin u endilikda nazariyani boshqacharoq, ancha yuqori darajada ( $M_{N1}$ ,  $M_{N2}$ ,  $M_{N3}$  ( $M_{T1}..$ ) – harbiy-kasbiy kompetentligni rivojlanishning har bir bosqichida mutaxassislikka oid nazariy bilimlarning berilgan meyorlari darajalari) idrok eta boshlaydi. Bu esa o'z navbatida bo'lajak ofitserning amaliyotda tegishli normativ darajasini egallahsiga imkon beradi ( $M_{a1}$ ,  $M_{a2}$ ,  $M_{a3}$ )( $M_{P1} ).$

Shakllanishning ilk bosqichida dastlabki kasbiy tayyorgarlik ( $M_{N1}$   $M_{a1}$   $M_{T1}$ ,  $M_{P1}$  - kompetentligini rivojlanishning birinchi bosqichida mutaxassislikka oid nazariy bilimlar hamda amaliy malakalari, ko'nikmalari, faoliyatidagi umumlashtirilgan usullarning berilgan normativlari darajalari amalga oshiriladi), ikkinchi bosqichda oddiy mutaxassisni tayyorlash amalga oshadi ( $M_{N2}$ ,  $M_{a2}$ ,  $M_{T2}$ ,  $M_{P2}$  - kompetentligini rivojlanishning ikkinchi bosqichida mutaxassislikka oid nazariy bilimlar hamda amaliy malakalari, ko'nikmalar, faoliyatining umumlashtirilgan usullari berilgan normativlarining darajalari), uchinchi bosqichda rahbar-mutaxassis tayyorlanadi ( $M_{N3}$ ,  $M_{a3}$ ,  $M_{T3}$ ,  $M_{P3}$  - kompetentligini rivojlanishning uchinchi bosqichida mutaxassislikka oid nazariy bilimlar hamda amaliy malakalari, ko'nikmalar, faoliyatining umumlashtirilgan usullari berilgan normativlarining darajalari).

Tabaqalashtirilgan ijtimoiy shartlangan maqsadni qo'yish va baholash ijtimoiy shaxs yondashuvini ro'yobga chiqaradi hamda maqsadni va tashhislanayotgan terminlardagi uning mazmunini mezonlar, ko'rsatkichlar, indikatorlar orqali ifoda etishga imkon beradi. Maqsadni tashhislash tarzida qo'yarkanmiz, maqsadga yetishish natijasini haqqoniy ravishda

tekshira olamiz, harbiy-kasbiy kompetentlikni rivojlanganlik darajasini, shuningdek, kompetentlikni rivojlanishining barcha bosqichlarida maqsadlar va natijalarning maksimal mosligini ta'minlagan holda maqsad komponentlarini differensial, ya'ni, tabaqlashtirilgan tarzda baholay olamiz.

Kasbiy kompetentligi mohiyati, tuzilishi va maqsadi haqida aniq tasavvurga, shuningdek, qayd etilgan yondashuvlar majmuini qo'llash va ta'lim jarayoni tamoyillarini hisobga olish imkon bo'lgani holda ushbu kompetentligini rivojlanishi jarayonini modellashtirishga o'tish mumkin bo'ladi. Pedagogikada model ishlab chiqish real mavjud bo'lgan tizimni maxsus analoglarni yaratish yo'li orqali fikran imitatsiyalashni o'tkazish bilan bevosita bog'liq.

Model yaratish metodi integrativ xususiyatga ega bo'lib, u pedagogik tadqiqot ishidagi empirik va nazariy bilimlarni birlashtirishga imkon beradi. Pedagogikada model tuzilmasini yaratish - real mavjud bo'lgan tizimni maxsus analogini ishlab chiqish orqali moddiy yoki xayoliy-mazmuniy tarzda imitatsiya qilishdir. Ushbu analogda mazkur *tizimning* tashkil topishi va ishlashi tamoyillari qayta tiklanadi.

Modelni ilmiy maqsadlarda tanlangan yoki isloh etilgan, asosiy obyekt sifatida yangi axborot ulashuvchi yordamchi obyekt o'laroq tavsif etilgan.

Oliy harbiy ta'limda bulajak ofitserlarni kasbiy faoliyatga tayyorlash sifati mezoni ta'lim natijalarining muayyan standartga muvofiqligidadir. Ushbu elementlar oliy harbiy ta'lim bitiruvchisini modelida tasvirlaydi. Oliy harbiy ta'lim bitiruvchisi modeli Davlat ta'lim standarti va malaka talablarini inobatga oluvchi o'ziga xos etalonga aylanadi. Modellarning amaliy qiymati esa bo'lajak ofitserga qo'yiladigan asosiy talablar qanday darajada to'liq aks etishiga bog'liq.

Bitiruvchi malakasiga qo'yiladigan ijtimoiy va zaruriy talablar etaloni sifatida qarash taklif etiladi, ya'ni mutaxassis o'zi egallagan, yorqin tasavvurga ega bo'lgan kasbiy faoliyat bilan shug'ullanishi lozim.

Shunday qilib, bo'lajak ofitserning kasbiy kompetentligini rivojlantirishning metodik modeli DTS talablarini, kasbiy tayyorgarligiga qo'yiladigan malaka talablarini inobatga oluvchi etalonga, shuningdek, harbiy-kasbiy kompetentligini rivojlanishi modelini yaratuvchi pedagogik vazifalarni yechish jihoziga aylanib boradi. Mutaxassis modelidan uning kasbiy tayyorgarligi modeliga o'tish mutaxassis bo'lajak kasbiy faoliyatida yechishi shart bo'lgan o'ziga xos muammoli vazifalarni ajratish va tavsiflash yo'li bilan amalga oshadi

### Фойдаланилган адабиётлар

1. Вербитский А.А. Теория и технологии контекстного образования. М.: -2017. -340 с.

2. Гавришук В.П. Профессионально-личностное становление будущего офицера-ракетчика: дис. ... канд. пед. наук: — Саратов: Изд. СГПУ. 2001.-212 с.
3. Кадочников А.И. Формирование навигаторской компетентности курсантов в процессе военной подготовки: дис. канд. пед. наук: Челябинск. 2009.-209 с.
4. Абдуқодиров А., Пардаев А. Педагогик технологияларга оид атамаларнинг изоҳли лугати. Тошкент. Фан ва технологиялар. -2012. -44 б.
5. Алимов Б.Н. Компетенциявий ёндашуви-ўкувчиларнинг математик саводхонлиги ва маданиятини ошириши воситаси сифатида. // «Узлуксиз таълим» илмий-услубий журнали, Т., 2015, 1-сон. -93-б.
6. Кадочников А.И. Формирование навигаторской компетентности курсантов в процессе военной подготовки: дис. канд. пед. наук: Челябинск. 2009.-209 с.

